

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PHD.03/30.2023.PED.173.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

**A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY
INSTITUTI**

KOMILOV TEMURJON KALANDAROVICH

**TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MAKTAB TA'LIMINI
MAQSADLI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.07 – Ta'limda menejment

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Komilov Temurjon Kalandarovich

Ta'lim sifatini oshirishda maktab ta'limini maqsadli moliyalashtirish
mexanizmlarini takomillashtirish.....3

Комилов Тему́ржон Кала́ндарович

Совершенство́вание механизмов целевого финанси́рования школьного
образова́ния для повыше́ния качества образова́ния.....23

Komilov Temurjon Kalandarovich

Improving mechanisms for targeted financing of school education to improve the
quality of education.....45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....49

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PHD.03/30.2023.PED.173.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

**A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY
INSTITUTI**

KOMILOV TEMURJON KALANDAROVICH

**TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MAKTAB TA'LIMINI
MAQSADLI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.07 – Ta'limda menejment

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Ped9723 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web sahifasida (www.bimm.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sharifxodjayev Usman Ulfatovich
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Askarov Abror Davlatmirzayevich
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Hakimova Muxabbat Fayziyevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.2023.Ped.173.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «15» 12 soat 14:00dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy) Tel.: (+99871) 202-01-20, faks: (+99871) 202-01-21; e-mail: info@bimm.uz.

Dissertatsiya bilan Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (26 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel.: (99871) 227-12-52; faks: (99871) 246-06-69.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «24» 11 kuni tarqatildi.
(2025-yil «24» 11 dagi 26 raqamli reestr bayonnomasi)



U.SH.Begimkulov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, pedagogika
fanlari doktori, professor

N.Q.Haqnazarova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash kotibi, pedagogika
fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Y.U.Ismadiyarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, pedagogika
fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Jahonda kechayotgan globallashuv va ta'lim tizimlarining integratsiyalashuvi jarayonlari pedagogik faoliyatning mazmun va sifatiga ta'sir ko'rsatishi, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, pedagog kadrlar salohiyatini rivojlantirish va ta'lim sifatini boshqarishning innovatsion mexanizmlarini joriy etish dolzarb vazifalar sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, natijalarga asoslangan moliyalashtirish (Results-Based Financing), ijtimoiy ta'sir obligatsiyalari (Social Impact Bonds), davlat-xususiy sheriklik (Public-Private Partnership) va xalqaro grantlar orqali ta'limni qo'llab-quvvatlash kabi mexanizmlar nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki pedagogik innovatsiyalarni rag'batlantirish va ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, ta'lim sifatini oshirishda maktab ta'limini maqsadli moliyalashtirish mexanizmlarini pedagogik menejment nuqtai nazaridan takomillashtirish, ta'lim muassasalarida pedagogik innovatsiyalar, liderlik va samaradorlik mezonlariga asoslangan boshqaruv modellarini ishlab chiqish zarurati ortayapti.

Jahon tajribasida maktab ta'limini maqsadli moliyalashtirishning pedagogik menejmentga integratsiyalashgan modellari, ta'lim muassasalarida resurslardan foydalanish samaradorligini baholash, hamda natijalarga asoslangan boshqaruv (performance-based management) tizimlarini joriy etish bo'yicha ilmiy izlanishlar keng yo'lga qo'yilgan. Bu esa ta'limni faqat iqtisodiy emas, balki pedagogik samaradorlik va ta'lim muhitining barqarorligi nuqtai nazaridan tahlil qilishni talab etadi. Shu munosabat bilan, maktab ta'limini maqsadli moliyalashtirishning samarali mexanizmlarini pedagogik menejment tamoyillari asosida ishlab chiqish, ta'lim muassasalari faoliyatida natijadorlikni baholash, monitoring va pedagogik fidbek tizimini joriy etish, shuningdek pedagog kadrlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish orqali ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessans poydevorlari mustahkamlanib borayotgan bir paytda ta'lim siyosati ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada jamiyatning maktab ta'limiga bo'lgan talabini qamrab olish darajasini ko'p jihatdan "...moliyaviy nazorat standartlarini joriy qilish yo'li bilan budget qonunchiligini buzish holatlarining oldini olish"¹ masalasi ustuvor vazifa sifatida belgilab qo'yilgan. Mazkur ustuvor vazifalardan kelib chiqib ta'lim sifatini oshirishda maktab ta'limini maqsadli moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-avgustdagi "Ta'lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ3231-sonli qarori

to'g'risida"gi PF-5538-sonli, 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5712-sonli Farmonlari, 2017-yil 21-avgustdagi "Ta'lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" PQ-3231-sonli, 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora – tadbirlari to'g'risida" PQ-3931-sonli Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-apreldagi "Xalq ta'limi tizimidagi tashkilotlarning budjetdan tashqari jamg'armalari mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 243-sonli qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Umumta'lim maktablari faoliyatini boshqarish va ularni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishga oid Sh.M.Qurbonov, N.G'.Karimov, S.M.Buzrukxonov, Sh.Kuchkarov, A.B.Sherov, A.O.Ergashev, Sh.Sh.Zaxidova, N.G.Muminov, I.T.Siradjev, Sh.I.Nizamova, N.N.Xakimovlar, ta'lim sifatini oshirish muammolar va ularni bartaraf etish masalalari bo'yicha H.Q.Yo'ldoshev, R.X.Djuraev, U.Sh.Begimkulov, M.T.Jumaniyozova, S.T.Turg'unov, Sh.Q.Mardonov, M.B.Urazova, X.U.Do'stmuxammadlar tadqiqot ishlari olib borgan.

MDHda umumta'lim muassasalarini moliyalashtirish muammolari, moliyalashtirish yo'llari, moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan Ye.Saviskaya, D.Chertikovseva, I.Yu.Fedorova, Ye.Suslova, M.I.Koverovalar, budjet va budjetdan tashqari moliyalashtirish manbalarini rivojlantirishga doir Ye.Yu.Yelistratova, A.Sharipbaeva, M.I.Solovyova, N.Dzyubalar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

Xorijiy davlatlarda ta'lim muassasalarini moliyalashtirish, ta'lim sifatini baholash va iqtisodiy o'sish bilan bog'liq masalalar yuzasidan A.Hanushek Eric, A.Lindseth Alfred, G.Psacharopoulos, H.A.Patrinis, C.Martin, U.Boser, M.Benner, P.Baffourlar, ta'lim tizimining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish, ta'limga bo'lgan investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholashga doir T.Radinger, T.Falch and B.Shaw, P.Santiago, Max Roserlar, maktab moliya siyosati va iqtisodiy natijalar o'rtasidagi bog'liqlik masalalari yuzasidan J.Lafortune, B.Krueger, C.K.Jackson, C.Mackeviciuslar tadqiqot ishlari olib borgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy tashkilotining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “UPGRADE” mavzudagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ta’lim sifatini oshirishda maktab ta’limini maqsadli moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

ta’lim sifatini oshirishda maqsadli moliyalashtirishning manzilli va natijaga asoslangan mexanizmlarini takomillashtirish;

ta’lim sifatini oshirishda moliyalashtirish mexanizmlarini nazariy jihatlarini o‘rganish, ta’limni maqsadli moliyalashtirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

ta’lim sifatini oshirishda umumta’lim maktablarini maqsadli moliyalashtirish modelini takomillashtirish;

umumta’lim maktablarida qo‘shimcha ta’lim dasturlarini moliyalashtirishning samaradorlik darajasini takomillashtirish.

Tadqiqot obyekti sifatida ta’lim sifatini oshirishda maktab ta’limini maqsadli moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish jarayoni tanlangan bo‘lib, Buxoro, Xorazm, Surxondaryo, Farg‘ona viloyatlari hamda Toshkent shahridan jami 509 nafar respondentlar ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmeti umumta’lim maktablarining ta’lim sifati va samaradorligini ta’minlash uchun maqsadli ta’lim dasturlarini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida mavzuga doir ilmiy tadqiqot ishlari o‘rganish, qiyosiy tahlil, kuzatish, umumlashtirish, modelashtirish, anketa so‘rovlari, muloqat va fenomenologiya, test, tajribasnov natijalarini matematik-statistik qayta ishlash va tahlil etish kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

pedagogik tashabbuslarni differensial rag‘batlantirish tizimi hududiy ehtiyojlar va kadrlar salohiyati o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlovchi boshqaruv mexanizmiga ko‘ra ma’muriy-hududiy birliklar doirasida o‘qituvchi-pedagoglarning faoliyatini “ta’lim darajasi yuqori bo‘lmagan maktablar”ga yo‘naltirish orqali takomillashtirilgan;

ta’lim sifatini oshirish jarayonida maktab ta’limini maqsadli rag‘batlantirishning moslashuvchan vositalarini sifat menejmenti bilan pedagogik boshqaruv jarayonlarni diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini hisobga olgan holda rahbar kadrlarning moliyaviy boshqaruv salohiyatini “Smart-Budgeting” texnologiyasi orqali takomillashtirilgan;

maktab ta'limi sifatini maqsadli rag'batlantirish modeli ta'lim oluvchilarning individual ehtiyojlari va maxsus pedagogik imkoniyatlarini hisobga olgan holda qo'shimcha ta'lim dasturlarini (repetitorlik, korreksion kurslar, individual mashg'ulotlar) moliyalashtirishning pedagogik ta'sir vositalarini bifurkatsion rag'batlantirish asosida takomillashtirilgan;

ta'lim sifatini oshirishda maktab ta'limini maqsadli rag'batlantirish "ta'sir – natija – sifat" zanjiriga muvofiq o'quvchilarning o'zlashtirishi, pedagoglarning uzlyuksiz kasbiy rivojlanishi va ta'lim muassasasining ijtimoiy faolligiga ta'sir ko'rsatuvchi inklyuziv ta'lim dasturlariga dominantlik berish orqali takomillashtirilib, shunga muvofiq moliyaviy rejalashtirishning natijadorlikka yo'naltirilgan boshqaruv paradigmasi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

ta'lim muassasalarini moliyalashtirish yo'llari va usullari borasida xorijiy ishlar va tajriba-sinov natijalaridan kelib chiqib, maktab faoliyatini samarali tashkil etish va ta'lim sifatini oshirishning o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'siri aniqlashtirildi;

ta'lim muassasalarini maqsadli moliyalashtirish orqali maqsadli ta'lim dasturlarini tashkil etish va qoniqarsiz ta'lim ko'rsatkichlariga ega o'quvchilarga qo'shimcha darslar berish orqali ta'limda yutuqlarga erishish yo'llari ishlab chiqildi;

ta'lim muassasalarini maqsadli moliyalashtirish orqali o'qituvchilarni moddiy ta'minlash va ijtimoiy qo'llab quvvatlashning mukammal choralari bo'yicha aniq takliflar va tavsiyalar berildi;

umumta'lim maktablarining moliyaviy faoliyatida, daromad va xarajatlarida samaradorlikni ta'minlash, maktab rahbariyatining moliyaviy faoliyatini rivojlantirish mexanizmlari bo'yicha amaliy xulosalar berildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishi xolis o'rganilgan bo'lib, ilmiy ishda qo'llanilgan nazariy yondashuvlar va usullar rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik statistik metodlar vositasida asoslangani, xulosa va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli boshqaruv idoralari tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotda o'rganilgan muammolar va qo'lga kiritilgan natijalarining ilmiy ahamiyati umumta'lim muassasalarini moliyalashtirish, maqsadli moliyalashtirish orqali qo'shimcha ta'lim dasturlari joriy qilish, maqsadli moliyalashtirish bilan ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlash va maktab faoliyatini tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o'rganilgan muammo va tajriba-sinov xulosalari kelgusida bu kabi ilmiy ishlarni rivojlantirishda qo'shimcha manba bo'lishi, maktablarning moliyaviy faoliyati, xususan maqsadli ta'lim dasturlarini moliyalashtirish mexanizmlarini yaratishda, o'qituvchilarni moddiy qo'llab quvvatlashda o'quv-uslubiy qo'llanma, dastur va adabiyot vazifasini bajarishi,

maktab ta'lim tizimidagi islohotlarda, qonun va qarorlar qabul qilishda u yoki bu jihatlari bilan asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ta'lim sifatini oshirishda maktab ta'limini maqsadli moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishga oid tadqiqotning ilmiy natijalari asosida:

pedagogik tashabbuslarni differensial rag'batlantirish tizimi hududiy ehtiyojlar va kadrlar salohiyati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlovchi boshqaruv mexanizmiga ko'ra ma'muriy-hududiy birliklar doirasida o'qituvchi-pedagoglarning faoliyatini "ta'lim darajasi yuqori bo'lmagan maktablar"ga yo'naltirish orqali takomillashtirishga oid takliflardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-oktyabrdagi "Ta'lim darajasi yuqori bo'lmagan maktablarga malakali o'qituvchi-pedagoglarni jalb qilish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 646-sonli qarori loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (*Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024-yil 25-oktabrdagi №03-33-3064-son ma'lumotnomasi*). Natijada umumiy o'rta ta'lim muassasalarida personalni samarali boshqarish uchun motivatsion mexanizm joriy etilgan;

ta'lim sifatini oshirish jarayonida maktab ta'limini maqsadli rag'batlantirishning moslashuvchan vositalarini sifat menejmenti bilan pedagogik boshqaruv jarayonlarni diversifikatsiya qilish imkoniyatlarini hisobga olgan holda rahbar kadrlarning moliyaviy boshqaruv salohiyatini "Smart-Budgeting" texnologiyasi orqali takomillashtirishga oid takliflardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-dekabrda "Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o'quv kurslarida o'qitish va ularga menejerlik sertifikatini berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 681-son qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (*Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024-yil 25-oktabrdagi №03-33-3064-son ma'lumotnomasi*). Natijada maktab direktorlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish bo'yicha malaka talablari takomillashtirilgan;

maktab ta'limi sifatini maqsadli rag'batlantirish modeli ta'lim oluvchilarning individual ehtiyojlari va maxsus pedagogik imkoniyatlarini hisobga olgan holda qo'shimcha ta'lim dasturlarini (repetitorlik, korreksion kurslar, individual mashg'ulotlar) moliyalashtirishning pedagogik ta'sir vositalarini bifurkatsion rag'batlantirish asosida takomillashtirishga oid takliflardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining o'rnak ko'rsatgan xodimlarini moddiy rag'batlantirish tartibini takomillashtirish to'g'risida" 823-son qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda foydalanilgan (*Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024-yil 25-oktabrdagi №03-33-3064-son ma'lumotnomasi*). Natijada umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pullik ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha bir nechta normativ asoslar kiritilgan;

ta'lim sifatini oshirishda maktab ta'limini maqsadli rag'batlantirish «ta'sir – natija – sifat» zanjiriga muvofiq o'quvchilarning o'zlashtirishi, pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi va ta'lim muassasasining ijtimoiy faolligiga ta'sir ko'rsatuvchi inklyuziv ta'lim dasturlariga dominantlik berish orqali

takomillashtirilib, shunga muvofiq moliyaviy rejalashtirishning natijadorlikka yo'naltirilgan boshqaruv paradigmasi asoslanganlikka oid takliflardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-dekabrdagi "Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o'quv kurslarida o'qitish va ularga menejerlik sertifikatini berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 681-son qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda foydalanilgan (*Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024-yil 25-oktabrdagi №03-33-3064-son ma'lumotnomasi*). Natijada maktab direktorlarining moliyaviy boshqaruv kompetentsiyalari rivojlantirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 6ta ilmiy ish, shundan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, jumladan, 2 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 136 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekti, predmeti aniqlangan, ishning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchiligi, nazariy hamda amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar, shuningdek, dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Ta'lim sifatini oshirish va maqsadli moliyalashtirishning o'zaro munosabatlari borasidagi ilmiy yondoshuvlar"** deb nomlangan birinchi bobda ta'lim sifatini oshirishda moliyalashtirish mexanizmlarini o'rganishning nazariy jihatlari, ta'limni maqsadli moliyalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari, ta'lim sifatini oshirishda maqsadli moliyalashtirishning samarali mexanizmlari o'rganilgan va ochib berilgan.

Ma'lumki, jahonda ta'limni moliyalashtirishda soha olimlari va davlat arboblari orasida keng bahs-munozara mavjud. Munozaralarda davlat budjetidan ta'limni moliyalashtirish uchun qancha mablag' ajratilishi kerak? Moliyalashtirish qanday amalga oshirilishi kerak, ya'ni uning mexanizmi? eng asosiysi moliyalashtirish darajasi (mablag'ning ko'p yoki kamligi) ta'lim sifatiga ta'sir qiladimi? Ta'lim sifatini oshirishning samarali moliyaviy-iqtisodiy jihatlari nimalardan iborat? va boshqa shu kabi masalalar ustida tortishuvlarni ko'rishimiz mumkin. 2018-yilda OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti)

mamlakatlarida boshlang'ich ta'limdan oliy ta'limgacha bo'lgan bir o'quvchi uchun o'rtacha yillik xarajatlar deyarli 11 700 AQSh dollarini tashkil etdi. Ammo bu o'rtacha ko'rsatkich OECD hamkor mamlakatlarida turlichadir. Masalan, OECD bo'yicha eng kam ko'rsatkichga ega Kolumbiyada bir o'quvchiga yillik xarajat taxminan 3100 AQSh dollarini tashkil qilsa, Norvegiya va Qo'shma Shtatlarda bu taxminan 18 000 AQSh dollarini, eng yuqori ko'rsatkich Luksemburgda 24 900 AQSh dollaridan ortiqni tashkil etdi.² Bundan ko'rishimiz mumkinki, ta'limni moliyalashtirish mamlakatlarning iqtisodiy imkoniyatlari va resurslaridan kelib chiqadi. Biroq, ta'limni moliyalashtirish masalasida ma'lum bir tavsiyalar berib o'tilgan.

Tadqiqotda pedagogik tashabbuslarni differensial rag'batlantirish tizimi asosida ma'muriy-hududiy birliklar doirasida o'qituvchi-pedagoglar faoliyatini samarali boshqarishga qaratilgan ilmiy-amaliy yondashuv ishlab chiqilib, ushbu yondashuv orqali hududiy ehtiyojlar va kadrlar salohiyati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashga xizmat qiluvchi innovatsion boshqaruv mexanizmi taklif etildi.


Tadqiqotda "ta'lim darajasi yuqori bo'lmagan maktablar"ga yuqori salohiyatli o'qituvchilarni maqsadli yo'naltirish, ularning tashabbuslarini rag'batlantirish, pedagog kadrlar resursini hududlar kesimida optimal taqsimlash hamda ta'lim sifatidagi hududiy tafovutlarni qisqartirishni ko'zda tutuvchi kompleks tizim yaratishga doir takliflar berildi.

Taklif etilgan mexanizmda o'qituvchining professional kompetensiyalarini baholash, tahlil etish va differensial rag'batlantirish mezonlari ilmiy asoslandi. Shuningdek, pedagoglarni hududiy ehtiyoj asosida joylashtirishning tashkiliy modeli, motivatsion paketlar, metodik va psixologik qo'llab-quvvatlash tizimi ishlab chiqildi.

Natijada, ta'lim darajasi past bo'lgan maktablarda pedagog kadrlar tanqisligini bosqichma-bosqich bartaraf etish, pedagoglar faoliyatini hududiy muammolarga yo'naltirish, ularning ijtimoiy va kasbiy motivatsiyasini oshirish, ta'lim sifatini hududlar kesimida barqarorlashtirish imkoni yaratildi. Tadqiqotda amaliy tasdiqdan o'tgan mazkur boshqaruv mexanizmini joriy etish orqali ta'lim muassasalarida innovatsion faol muhitni shakllantirish, pedagoglarning ijodiy va tashabbuskorlik faoliyatini rag'batlantirish, ta'lim sifat ko'rsatkichlari oshgani aniqlandi.

Shu bilan, tadqiqot natijasida hududiy ehtiyojlar va kadrlar salohiyati o'rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi, ta'lim sifati past maktablarda pedagogik salohiyatni kuchaytirishga qaratilgan, pedagogik tashabbuslarni differensial rag'batlantirish asosidagi boshqaruv mexanizmi ilk bor ilmiy jihatdan asoslandi va amaliy jihatdan sinovdan o'tkazildi (1-rasm).

² OECD: Education at a Glance 2021: OECD Indicators, OECD Publishing, Paris, 2021, p. 232.



1-rasm. Umumta'lim maktablarini maqsadli moliyalashtirish mexanizmlari

Xususan, YuNESKOning Education 2030 Action Framework Barqaror rivojlanish maqsadlarida dunyo davlatlariga yalpi ichki mahsulotlarining (YaIM) kamida 4 foizi va yillik hukumat xarajatlarning kamida 15 foizini ta'limni moliyalashtirish uchun ajratishini tavsiya qiladi. Mamlakat boyligi va rivojlanish


ko'rsatkichlari qancha bo'lishidan qat'iy nazar YaIMning 4 foizidan kam bo'lmagan holda ta'limni moliyalashtirish ushbu davlat va jamiyatda ta'lim ustuvorligini ko'rsatadi. Bugungi kunda maktab ta'limi tizimini maqsadli moliyalashtirish bo'yicha bir qancha mexanizmlar majud bo'lib, 1-rasmda ko'rishimiz mumkin bo'ladi.

Bir guruh olimlar masalan, Stenford universiteti professorlari E.Xanushek va A.Lindset ta'lim moliyalashtirishni natijadorlikka asoslangan holda shakllantirish kerakligini ilgari suradi. Rossiyalik tadqiqotchilar Ye.Saviskaya va D.Chertykovseva esa o'quvchilarning yutuq va muvaffaqiyatida ta'lim xarajatlarining YaIMga nisbati, ta'lim xarajatlarining umumiy davlat xarajatlari nisbatiga va o'qituvchilarning oylik maoshining mamlakat o'rtacha ish haqi darajasidan yuqori yoki pastligiga bog'liq emasligini ta'kidlaydi. Ikkinchi guruh olimlari masalan, amerikalik tadqiqotchilar Karmel Martin, Ulrix Bozer va b. moliyalashtirish yuqori sifatli ta'limni ta'minlashning markaziy komponenti sifatida ko'plab yaxshi natijalarga olib kelishini ta'kidlagan bo'lsa, rossiyalik tadqiqotchi Ye.Suslova, o'qituvchilarning past ish haqi olishi yuqori malakali yosh mutaxassislarning ta'lim sektoriga kirib kelishini cheklashini, boshqa kamchiliklar qatorida, o'qituvchilarning mehnat samaradorligini oshirishga bo'lgan motivatsiyasi va ularning ijtimoiy mavqeyi past darajada qolishi ko'plab ta'lim muammolarini keltirib chiqarishini bildirib o'tadi".

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Maktab ta'limini maqsadli moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish yo'llari”** deb nomlanib, unda ta'limni moliyalashtirishning milliy asoslari: muammo va yechimlar, rivojlangan davlatlarda maktab ta'limini maqsadli moliyalashtirishning ilg'or tajribalari, maktab ta'limini maqsadli moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish modellari tahlil qilingan, bu borada taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Maqsadli moliyalashtirish va uning mexanizmi qanday amalga oshirilishi kerakligi ta'lim siyosatidagi ustuvorliklardan kelib chiqmoqda. Yana OECD misolida oladigan bo'lsak, ushbu tashkilot a'zolari va hamkor davlatlarining ba'zilarida oliy ta'limga katta mablag' ajratsa, boshqalari esa uch yoki to'rt yoshli bollar uchun ya'ni maktabgacha ta'limga ko'proq sarmoya kiritadi. Dunyoning ba'zi mamlakatlari o'rta ta'limga ko'proq mablag' yo'naltiradi. Umuman olganda, bu o'sha davlatning ta'lim ustuvorliklaridan kelib chiqadi. Bu bilan bog'liq yana bir masala moliyalashtirish qanday amalga oshirilishi kerak? Buning dunyoda keng tarqalgan mexanizmi o'quvchi kishi boshiga moliyalashtirishdir.

Ba'zi davlatlarda xususan O'zbekistonda uchta komponentni inobatga olib moliyalashtiradi: o'quvchi soni, sinf va o'qituvchi (malakasi va yuklamasidan kelib chiqib).

PISA tadqiqoti asoschisi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) bosh kotibining ta'lim siyosati bo'yicha maxsus maslahatchisi Andreas Shlyayxerning 2022-yil O'zbekistonga tashrifida, undan O'zbekistonning mavjud iqtisodiy imkoniyatidan kelib chiqib ta'limning qaysi yo'nalishiga ko'proq mablag'



2-rasm. Ta'lim sifatini oshirishda umumta'lim maktablarini maqsadli moliyalashtirish modeli

ajratish samaraliroq bo'lishi so'ralganda, Shlyayxer sifatga deb ta'kidlaydi va sifat o'qituvchilarning bilim va malakasiga bog'liqligini va ta'lim sifati hech qachon o'qituvchi sifatidan oshib ketolmasligini bildirib o'tadi.

Shu bilan birga, ko'pgina o'quvchilarda maqsadli individual yordam beradigan maxsus ta'limga ehtiyojlari mavjuddir. Ushbu yordamni moliyalashtirish orqali maktablarga o'quvchilarning qo'shimcha ta'lim ehtiyojlariga javob berishga imkon beradi. Masalan, Avstraliyada ta'limni qo'shimcha moliyalashtirish modeli ishlab chiqilgan bo'lib, u Resurslarni taqsimlash modeli (The Resource Allocation Model – qisqacha RAM) deb nomlanadi. RAM individual yordamga muhtoj o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashni ta'minlash uchun maqsadli mablag'larni taqdim etadi. Ko'plab mamlakatlarda shu ko'rinishda ta'limni maqsadli moliyalashtirish orqali o'quvchilarni fan va til bilish darajalarini, o'qish, yozish va nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratishi va tegishli dasturlar qabul qilishini ko'rishimiz mumkin. Tahlil va xulosalardan kelib chiqib, umumta'lim muassasalarini maqsadli moliyalashtirish bo'yicha 2-rasmda keltirib o'tilgan modelni ishlab chiqildi.

Tadqiqotda ta'lim sifatini oshirish jarayonida umumta'lim maktablarini maqsadli rag'batlantirishning moslashuvchan vositalarini joriy etish nuqtai nazaridan moliyaviy boshqaruv va sifat menejmentini integratsiyalashtiruvchi innovatsion yondashuv ishlab chiqildi. Ushbu yondashuv ta'lim muassasalari resurslarini samarali taqsimlash, moliyaviy qarorlar qabul qilishda shaffoflik va aniqlikni ta'minlash, pedagogik jarayon natijadorligini iqtisodiy mezonlar orqali baholashga asoslanadi.

Tadqiqot doirasida rahbar kadrlarning moliyaviy boshqaruv salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan "Smart-Budgeting" texnologiyasi amaliyotga tadbiiq etilib, mazkur texnologiya orqali maktab rahbarlari moliyaviy rejalashtirish, xarajatlarni optimallashtirish, ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan strategik sarflar tuzilmasini shakllantirish, tahliliy indikatorlar asosida budjetni qayta taqsimlash ko'nikmalari bilan ta'minlandi.

Ishlab chiqilgan mexanizm moliyaviy boshqaruv jarayonlarini diversifikatsiya qilish, ya'ni davlat grantlari, homiylik resurslari, raqobatbardosh loyihalar, ijtimoiy sheriklik mexanizmlari va ta'lim xizmatlarini iqtisodiy jihatdan rag'batlantirish orqali ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini oshirish imkonini berdi.


Tadqiqot natijasida ta'lim muassasalarida moliyaviy menejment va sifat menejmentini uyg'unlashtirishning konseptual modeli ishlab chiqildi, vaqtinchalik moliyaviy cheklovlar sharoitida ham ta'lim sifatiga qaratilgan samarali budjetlashtirish tizimi shakllantirildi. "Smart-Budgeting" texnologiyasining joriy etilishi rahbarlarning moliyaviy savodxonligi, sifat mezonlariga tayangan holda qaror qabul qilish qobiliyati va innovatsion tashabbuslarni amalga oshirish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshmshimga erishildi.

Shu tariqa, ilk bor ta'lim muassasalarida moliyaviy boshqaruv va sifat menejmentini integratsiyalashgan holda amalga oshirishga qaratilgan "Smart-

Budgeting” texnologiyasi ilmiy asoslandi va amaliyotga tatbiq etildi. Mazkur texnologiya asosida rahbar kadrlarining moliyaviy boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirish, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va ta’lim sifatini oshirish bo’yicha yangi amaliy mexanizmlar ishlab chiqildi va ularning samaradorligi o’rganildi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Ta’lim sifatini oshirishda maktab ta’limini maqsadli moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish ishlar metodologiyasi va natijalari”**ga bag’ishlangan bo’lib, mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko’lamdagi ta’lim islohotlari atroflicha yoritilgan va unda ta’limni moliyalashtirish tizimi va mexanizmlari tahlil qilingan. Bu borada erishilgan yutuqlar bilan birgalikda kamchilik va muammolar ko’rsatib o’tilgan. Jumladan, tadqiqotchilar N.G’.Karimov va S.M.Buzrukxonovlarning yozishicha, “mamlakatimizda budget xarajatlarini rejalashtirish tizimi mavjud va hozirgi vaqtda ta’lim xizmatlari, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni ta’minlash bilan bog’liq normativ xarajatlar ko’rsatkichlariga asoslanadi va hozircha ushbu faoliyatni moliyalashtirishning samaradorligini hisobga olmaydi”.

Ta’limda moliyalashtirishda samaradorlikka erishish, albatta, sifat bilan o’lchanadi va baholanadi. Sifat esa ta’lim tengligi, ta’lim imkoniyatlari va shubhasiz ta’lim xizmatlari (ya’ni, o’qitish va o’rgatishning samarali metod va mexanizmlari) bilan bevosita bog’liqdir. Ta’lim tengligi, ta’lim imkoniyatlari va ta’lim xizmatlarini rivojlantirishda esa maqsadli moliyalashtirish katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu faraz va yondashuvlarimizdan kelib chiqib, xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda tajriba-sinov tadqiqotlari tashkil etildi.




3-rasm. Sizningcha, ta’limga ajratilayotgan mablag‘ yetarlimi? (% da)

Tajriba sinov uchun Buxoro viloyatidan 4 ta maktab (Kogon tumanidagi 15 va 24 umumta’lim maktablari, Olot tumanidagi 15 va 25 umumta’lim maktablari), Xorazm viloyatidan 3 ta maktab (Urganch tumanidagi 1 umumta’lim

maktabi, Urganch shahridagi 1-umumta'lim maktabi, Shovot tumanidagi 44-umumta'lim maktabi), Surxondaryo viloyatidan 2 ta maktab (Sherobod tumanidagi 19 va 56 umumta'lim maktablari), Farg'ona viloyatidan 2 ta maktab (Toshloq tumanidagi 12 va 37-umumta'lim maktablari), Toshkent shahridan 2 ta maktab (M.Ulug'bek tumanidagi 18-umumta'lim maktabi va Yakkasaroy tumanidagi 91-umumta'lim maktabi) jami 13 ta umumta'lim maktablari tanlab olindi va tajriba-sinov o'tkazildi.

Ishtirokchilar tarkibi maktab direktori, uning o'rinbosarlari, o'qituvchilar va ota-onalardan iborat bo'lib, Buxoro viloyatidan 159 nafar, Xorazm viloyatidan 119 nafar, Surxondaryo viloyatidan 78 nafar, Farg'ona viloyatidan 76 nafar, Toshkent shahridan 75 nafar, jami 509 (ba'zi savollarda 507, bittasida 487) nafar ishtirokchi qatnashdi. So'rovnoma mazmuni 10 ta savoldan iborat bo'lib, unda ta'limni moliyalashtirishga bog'liq savollar o'rin olgan va a, b, c, d javob variantlari taqdim etilgan. Ko'rib turganimizdek, ishtirokchilarning salkam 43 foizi ta'limga ajratilayotgan mablag'larni yetarli emas deb ma'lum qilmoqda. Keyingi savollar moliyalashtirishni takomillashtirishga qaratilganligini ta'kidlashimiz lozim.


2-diagrammada ko'rsatilganidek, ishtirokchilarning deyarli yarmi o'rta ta'limga ko'proq mablag' yo'naltirilishini qo'llab quvvatlamoqda. Bu albatta, o'rta ta'limda dars beruvchi o'qituvchilarning qarashlari bilan bog'liqdir biroq keyingi so'rov buni mohiyatini ochib beradi.



4-rasm. Ta'limni qaysi bosqichida davlat ko'proq mablag' ajratishi kerak? (% da)


3-diagrammada ko'rishimiz mumkinki, ishtirokchilarning 54,8 foizi ko'rsatganidek, ota-onalarning eng ko'p ta'lim xarajatlari oliy ta'lim bosqichidadir. Biroq, paradoks shuki, yuqoridagi 2-diagrammada ishtirokchilarning 49 foizi davlat budjetdan o'rta ta'limga ko'proq mablag' ajratishni belgilagan bo'lsa, ushbu ishtirokchilar eng ko'p oliy ta'limda xarajat qilishlarini ma'lum qilmoqda. Albatta,

oliy ta'limga otaonalarining xarajatlari xususiy xarajatlar hisoblanadi va bu ko'proq to'lov kontrakti, yashash xarajatlari hisobiga kengayadi.



5-rasm. Ta'limni qaysi bosqichida ota-onalar farzandlari uchun ko'proq mablag' sarflaydi? (% da)

Shuningdek, so'rovnomaning oltinchi savolida "Ota-onalar o'z farzandlarining ta'limi uchun asosan nimalarga ko'proq mablag' sarflaydi?" mazmunida berilgan savolga quyidagicha javob berilgan:



6-rasm. Ota-onalar o'z farzandlarining ta'limi uchun asosan nimalarga ko'proq mablag' sarflaydi? (% da)

4-diagrammadan ko'rinib turibdiki, ishtirokchilarning 358 nafari "qo'shimcha darslarga (repetitorlik)", 29 nafari "maktab ta'miriga", 64 nafari "o'quv-qurollari va kitoblarga", 56 nafari "o'quvchilarning tushlik va yo'l xarajatlariga" xarajat qilishlarini ko'rsatgan.

Hech kimga sir emaski, ota-onalar oliy ta'limga kirishini rag'batlantirish uchun farzandlarini qo'shimcha ta'limga beradi. Bu esa ko'p holatlarda ta'lim tengsizligini keltirib chiqaradi. Chunki, moddiy imkoniyati cheklangan oilalar farzandlari uchun qo'shimcha ta'limni rag'batlantira olmaydi. Shularni inobatga

olib, umumta'lim maktablarida qo'shimcha ta'limni tashkil etish uchun maqsadli moliyalashtirish mexanizmlarini joriy qilish maqsadga muvofiq. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, umumta'lim maktablarini maqsadli moliyalashtirish faqat qo'shimcha ta'lim uchun emas, balki, boshqa ta'lim xizmatlari va maktab moddiy ta'minotlari uchun ham bo'lishi mumkin. Ammo tadqiqot doirasini chegaralash uchun ingliz tili bo'yicha qo'shimcha ta'limni tashkil etishda maqsadli moliyalashtirishning samaradorligi va ta'siri o'rganib chiqildi.

